



THE GEOPOLITICAL IMPORTANCE OF THE OIL FACTOR IN THE PERSIAN GULF

Malikakhon Minovvarova

Doctoral Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Persian Gulf, oil geopolitics, Strait of Hormuz, energy security, OPEC, oil exports, regional security, nationalization, global energy, geostrategy.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article analyzes the global geopolitical significance of the Persian Gulf region through its energy resources, particularly oil and gas reserves. It examines the region's strategic position, energy flows passing through the Strait of Hormuz, and their interconnection with national and international political processes. In addition, the evolution of oil geopolitics in the Persian Gulf region is explored within the context of contemporary security challenges. The study highlights the role of regional states in maintaining the global energy and strategic balance, as well as the importance of diversifying export routes in ensuring regional security.

FORS KO'RFAZIDA NEFT OMILINING GEOSIYOSIY AHAMIYATI

Malikaxon Minovvarova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Fors ko'rfazi, neft geosiyosati, Ho'rmuz bo'g'ozi, energetik xavfsizlik, OPEC, neft eksporti, mintaqaviy xavfsizlik, milliyashtirish, global energetika, geostrategiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Fors ko'rfazi mintaqasining energetik resurslar, xususan neft va gaz zaxiralari orqali global geosiyosiy ahamiyati tahlil qilingan bo'lib, ushbu hududning strategik pozitsiyasi, Ho'rmuz bo'g'ozi orqali o'tadigan energetik oqimlar va milliy hamda xalqaro siyosiy jarayonlar bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, Fors ko'rfazi mintaqasidagi neft geosiyosati evolyutsiyasi va zamonaviy xavfsizlik tahdidlari kontekstida mintaq

davlatlarining global energetik va strategik muvozanatdagi roli hamda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishning ahamiyati ochib berilgan.

ГЕОПОЛИТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НЕФТЯНОГО ФАКТОРА В ПЕРСИДСКОМ ЗАЛИВЕ

Маликахон Миновварова

Базовый докторант

Ташкентского государственного университета востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Персидский залив, нефтяная геополитика, Ормузский пролив, энергетическая безопасность, ОПЕК, экспорт нефти, региональная безопасность, национализация, глобальная энергетика, геостратегия.

Аннотация: В данной статье проанализирована глобальная геополитическая значимость региона Персидского залива через призму его энергетических ресурсов, в частности запасов нефти и газа. Рассмотрены стратегическое положение региона, энергетические потоки, проходящие через Ормузский пролив, а также их взаимосвязь с национальными и международными политическими процессами. Кроме того, исследована эволюция нефтяной геополитики региона Персидского залива в контексте современных вызовов безопасности. Раскрыта роль государств региона в поддержании глобального энергетического и стратегического баланса, а также обоснована значимость диверсификации экспортных маршрутов в обеспечении региональной безопасности.

Kirish. Hozirgi bosqichda strategik mintaqalarning geosiyosiy ahamiyati, avvalo, ularning energetik resurslarga egaligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, neft va gaz zaxiralari global energetika tizimida muhim o'rin tutib, energiya resurslariga boy hududlarda geosiyosiy va geoiqtisodiy raqobatning keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Globallashuv jarayoni va jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sharoitida mazkur hududlarga xalqaro hamjamiyat e'tiborining ortishi aynan shu omillar bilan izohlanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda uglevodород resurslariga bo'lgan talabning izchil oshib borishi milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik tizimida energetik xavfsizlik masalasining dolzarbligini yanada kuchaytirdi. Bugungi kunda energetik xavfsizlik davlatlarning

strategik manfaatlari, tashqi siyosiy ustuvor yo'nalishlari hamda iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro munosabatlarda kuzatilayotgan ayrim harbiy mojarolar, terrorchilik tahdidlari, siyosiy beqarorlik va "rangli inqiloblar" jarayonlari ko'p jihatdan energetika omili, xususan, neft-gaz geosiyosati bilan bog'liq ekani kuzatiladi. Bu holat energetik resurslar ustidan nazorat xalqaro raqobatning muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotganini hamda energetika sohasidagi manfaatlar global xavfsizlik arxitekturasiga bevosita ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Shu jihatdan neft-gaz resurslariga boy mintaqalarning geosiyosiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta'kidlanganidek: "Energetika – taraqqiyotning kaliti, zarur bo'lsa, uning manbaidir... bu masala bugungi kunda muhim geosiyosiy omilga aylanmoqda" [13]. Shu sababli, hozirgi davrda har bir mustaqil davlat tashqi siyosiy strategiyasini shakllantirishda energetika omiliga alohida e'tibor qaratmoqda. Energiya manbalariga boy hududlarda yirik davlatlar geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvi kuchayib borayotgani esa mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda energetik xavfsizlik omilining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Mazkur holat davlatlar tashqi siyosatida neft geosiyosatining o'ziga xos xususiyatlarini hamda uning mintaqaviy va global xavfsizlikka ta'sirini kompleks tarzda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar tahlili. Fors ko'rfazi mintaqasi ulkan neft va tabiiy gaz zaxiralariga egaligi sababli uzoq yillardan buyon global energetika tizimida strategik ahamiyatga ega hudud sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro energetika tashkilotlari ma'lumotlariga ko'ra, mazkur mintaqa davlatlari dunyoda aniqlangan neft zaxiralarining qariyb 55 foizini, tabiiy gaz zaxiralarining esa 30-35 foizini o'zida jamlagan [3]. Statistika ko'rsatkichlarga muvofiq, hududda 871,18 milliard barrel neft zaxirasi mavjud bo'lib, bu jahon miqyosidagi qariyb 1,57 trillion barrel umumiy neft resurslarining salmoqli qismini tashkil etadi [9]. Xususan, Saudiya Arabistoni, Iroq, Eron, Quvayt va Birlashgan Arab Amirliklari jahon neft ishlab chiqarishining taxminan 25-30 foizini ta'minlab, global energetika bozorida muhim o'rin egallaydi [10]. Kengroq hududiy yondashuvda qaralganda, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasi xalqaro neft savdosining qariyb 40 foizini hamda tabiiy gaz savdosining 20 foizini tashkil etib, yirik uglevodorod eksport qiluvchi hudud sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, Fors ko'rfazi va unga tutash hududlarda energetik resurslar ustidan nazorat masalasi yirik davlatlarning geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarini to'qnashuvining muhim omiliga aylanib, mintaqaviy hamda global xavfsizlik jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, Fors ko'rfazi davlatlari neft ishlab chiqarish va eksport hajmi bo'yicha ham jahon bozorida yetakchi mavqega ega. Xususan, Fors ko'rfazi hamkorlik kengashi (GCC)

mamlakatlarining tasdiqlangan neft zaxiralari 2023 yilda 511,9 milliard barrelni tashkil etib, bu global zaxiralarning taxminan 32,6 foiziga teng ekani qayd etilgan [5]. Shuningdek, ushbu davlatlarning kunlik neft qazib chiqarish salohiyati ham jahon miqyosida yetakchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha ham Fors ko'rfazi mintaqasi hamda OPEC mamlakatlari muhim o'rin tutadi. 2024-yil holatiga ko'ra, OPECga a'zo davlatlarning tasdiqlangan tabiiy gaz zaxiralari 75,12 trillion kub metrni tashkil etib, bu global gaz zaxiralarning qariyb 35,7 foiziga teng bo'lgan [9]. Ushbu ko'rsatkichlar Fors ko'rfazi davlatlarini nafaqat resurslarga boy hudud, balki energetika eksporti, ishlab chiqarish salohiyati va global bozor tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim subyekt sifatida tavsiflaydi. Mazkur resurslarning salmoqli ulushi xalqaro siyosat, iqtisodiyot va xavfsizlik strategiyalarining shakllanishida mintaqaviy hamda global darajada muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Fors ko'rfazi mintaqasi o'zining strategik ahamiyatini nafaqat energetik salohiyati, balki qulay geografik joylashuvi va tranzit imkoniyatlari orqali ham mustahkamlaydi. Neft va gaz quvurlari tarmoqlari, xalqaro tanker qatnovi hamda Ho'rmuz bo'g'ozini mintaqani jahon energetika eksportining markaziy "tugun nuqtasi"ga aylantirgan. 2023-2025-yillar mobaynida Ho'rmuz bo'g'ozini orqali kuniga o'rtacha 20 million barrelni yaqin neft tashilgan bo'lib, bu jahon neft iste'molining qariyb 20 foiziga to'g'ri keladi. Shuningdek, global LNG savdosining taxminan beshdan bir qismi ham aynan shu yo'nalish orqali amalga oshiriladi.

Mazkur tranzit ustunligi Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt, Iroq va Eron kabi davlatlarga global bozorga chiqishda muhim strategik ustunlik beradi. Neft oqimining asosiy qismi Osiyo davlatlariga, ya'ni Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Janubiy Koreyaga yo'naltirilgan.

Energetik resurslarning global bozorga chiqish mexanizmlari mintaqaviy geosiyosiy jarayonlarning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Ho'rmuz bo'g'ozining yopilishi yoki tranzit yo'nalishlari xavfsizligiga tahdid yuzaga kelishi jahon neft narxlari va global iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday vaziyatlarda energiya bozorlarida narxlarning keskin oshishi ehtimoli yuqori ekani ekspert va tahliliy manbalarda qayd etiladi.

Klassik geosiyosiy nazariyalarda Fors ko'rfazi mintaqasi, ayniqsa Halford Makinderning "Heartland" va Spaykmenning "Rimland" kontseptsiyalari doirasida tahlil qilingan. Dastlab, ushbu hudud Rimlandning strategik periferiyasi sifatida ko'rilgan bo'lsa, keyingi davrlarda ba'zi tadqiqotchilar tomonidan u global geosiyosiy markazga, ya'ni Hartlandning yoki "Markazning markazi"ga yaqin hudud sifatida qaraladi [1]. Bu geosiyosiy pozitsiya mintaqani nafaqat

energetik resurslar (neft va gaz) jihatidan, balki global strategik muvozanatga ta'sir etuvchi hudud sifatida ham ajratib turadi. Shu nuqtai nazardan, Fors ko'rfazi davlatlarining tashqi siyosiy qarorlari va energetik strategiyalari klassik geosiyosiy konsepsiyalar bilan bog'liq holda shakllanadi, va bu mintaqa jahon energetika bozorida markaziy rol o'ynaydi [6].

Shu bilan birga, Fors ko'rfazi mintaqasi va uning asosiy energetik yo'laklaridan biri bo'lgan Ho'rmuz bo'g'ozida turli geosiyosiy konsepsiyalar shakllangan. Geosiyosat nazariyotchisi Nikolas Spaykmenning fikricha, davlatlar o'z energetik resurslar, xususan yoqilg'i ehtiyojlarini ta'minlashda Ho'rmuz bo'g'ozining strategik ahamiyati yetakchi rol o'ynaydi. Shu sababli, butun Fors ko'rfazi mintaqasi global geostrategik nuqtai nazardan muhim hudud sifatida qabul qilinadi [4].

Ushbu konsepsiya Fors ko'rfazi davlatlarining energetik resurslarni qazib olish, eksport qilish va jahon bozorlariga yetkazib berish strategiyalari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Ho'rmuz bo'g'ozida orqali o'tadigan neft va gaz oqimlari mintaqani nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va strategik jihatdan markaziy ahamiyatga ega hududga aylantiradi

Neftning Fors ko'rfazida topilishi XX asr boshlariga to'g'ri keladi. 1908-yilda tashkil etilgan Anglo-Persian Oil Company (hozirgi BP) mintaqada birinchi tijorat neft qazib olish ishlarini boshladi [7]. Shu davrda neft Buyuk Britaniya uchun strategik xom ashyo sifatida o'z ahamiyatini oshira boshladi. Bosh vazir U.Churchillning siyosati doirasida, harbiy va siyosiy strategiyalarda neft yetakchi omil sifatida qabul qilindi [12]. Fors ko'rfazidan neft qazib olinishi nafaqat Buyuk Britaniya uchun, balki neftga muhtoj barcha davlatlar uchun mintaqani strategik jihatdan muhim hududga aylantirdi. Sanoatlashgan davlatlarning energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoji ortishi bilan Fors ko'rfazi neftining geosiyosiy ahamiyati yanada oshdi. Birinchi jahon urushi arafasida Buyuk Britaniya harbiy-dengiz kuchlari uchun neftdan asosiy yoqilg'i sifatida foydalanish qarori qabul qilindi, bu esa energetik xavfsizlik tushunchasining shakllanishiga va Fors ko'rfazi neft geosiyosatining dastlabki bosqichiga asos bo'ldi. Shunday qilib, Buyuk Britaniyaning yoqilg'i ehtiyojlari Fors ko'rfazi neftiga bevosita bog'lanishi bilan, mintaqa global energetik va geosiyosiy muvozanatda markaziy rolga ega bo'ldi.

Fors ko'rfazi neft geosiyosati shakllanishining keyingi bosqichi Ikkinchi jahon urushidan so'nggi davrlar bilan bog'liq bo'lib, u mintaqadagi neft sanoatining milliyashtirilishi jarayonini o'z ichiga oladi. Xususan, 1951-yilda Eron hukumati neftni milliyashtirish qarorini qabul qildi, bu esa xalqaro neft kompaniyalari va G'arb davlatlari manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, 1956-yilda Misrning Suvaysh kanalini milliyashtirish qarori G'arb davlatlari iqtisodiy xavfsizligi uchun jiddiy tahdid sifatida baholangan. Aynan 1955-yilda kanal orqali

Evropaga yetkazilgan neft hajmi 67 million tonnaga teng bo‘lib, ushbu tranzit yo‘lining strategik ahamiyatini namoyon etdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda hokimiyatga kelgan arab siyosiy yetakchilardan biri, Misrning sobiq prezidenti Jamal Abdul Nosir, neft omilining strategik ahamiyatini birinchi bo‘lib angladi. U o‘zining “Inqilob falsafasi” asarida neftni Arab dunyosining uch asosiy kuch — qudrat manbalaridan biri sifatida baholaydi va neft G‘arb sivilizatsiyasining qudrat markazi ekanligini ta’kidlaydi [14].

Shu tariqa, Fors ko‘rfazi davlatlarining neft resurslarini milliyashtirish harakatlari mintaqaning geosiyosiy ahamiyatini kuchaytirib, xalqaro energetik xavfsizlik va global strategik muvozanat nuqtai nazaridan markaziy rol o‘ynashini ta’kidladi.

Neft geosiyosati evolyutsiyasida 1960-yillarda G‘arbiy neft kompaniyalari o‘rtasidagi raqobat Fors ko‘rfazi davlatlarini o‘z neft narxlarini mustaqil belgilash va erkin energetik siyosat olib borishga undadi. Shu natijada 1960-yilda Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEC) tashkil qilindi, bu esa jahon geosiyosatida yangi subyektning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Ushbu jarayonlar bilan bog‘liq keyingi to‘lqin 1973-yilgi neft inqirozi bilan bog‘liq bo‘lib, jahon geosiyosatida “neft quroli” amaliyoti kuzatildi va neft rasman siyosiy bosim vositasi sifatida ishlatildi. 1990-yilgi Birinchi Fors ko‘rfazi urushi va 2003-yilgi Ikkinchi Fors ko‘rfazi urushi mintaqadagi neft geosiyosatining navbatdagi shakllanish bosqichlarini belgiladi, bu esa energetik resurslar orqali siyosiy ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini yanada mustahkamladi.

Zamonaviy davrda Fors ko‘rfazi neft geosiyosati mintaqadagi siyosiy tanglik, xususan, Eronning yadroviy dasturi bilan bog‘liq vaziyat, Ho‘rmuz bo‘g‘ozi atrofida geostrategik raqobat, shuningdek, “faol demokratlashtirish” maqsadidagi “Arab bahori” inqilobiy jarayonlarida o‘z aksini topmoqda. Ushbu omillar mintaqaning energetik xavfsizligi va global neft ta’minotidagi o‘rni jihatidan dolzarb ahamiyat kasb etadi [2].

Bugungi kunda Yaqin Sharq mintaqasida kuzatilayotgan siyosiy inqirozlar neft va gaz ishlab chiqarish sur‘atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda va mintaqaning kelgusidagi energetik ta’minoti bo‘yicha xavotirlarning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Bir qancha eksportyor davlatlar xalqaro energetika bozori barqarorligini ta’minlash choralari izlash bilan birga, asosiy ishlab chiqaruvchi davlatlarda siyosiy inqirozlarning keng tarqalishi xavfi bilan yuzlashmoqda. Bundan tashqari, Eron bilan bog‘liq Ho‘rmuz bo‘g‘ozi geosiyosiy chizig‘i Fors ko‘rfazi neft geosiyosatining muhim atributi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu tor suv yo‘li orqali o‘tadigan neft va gaz oqimlari global energetika tizimida mintaqaning strategik ahamiyatini kuchaytiradi, shuningdek, xalqaro energetik xavfsizlik va geosiyosiy muvozanat nuqtai nazaridan markaziy rol o‘ynaydi [11].

Fors ko'rfazi davlatlari neft eksporti xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadigan zamonaviy tahdidlarga to'xtaladigan bo'lsak, mintaqa global energetik ta'minot tizimi uchun markaziy ahamiyatga ega bo'lib, xususan Ho'rmuz bo'g'ozini orqali har kuni dunyo neft ishlab chiqarishining katta qismi yetkaziladi. Shu sababli mintaqadagi siyosiy va harbiy tangliklar, shuningdek zamonaviy geosiyosiy tahdidlar Fors ko'rfazi davlatlarining neft eksporti xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2003-yildan beri Eron yadroviy dasturi atrofida yuzaga kelgan ziddiyat Fors ko'rfazi barqarorligi va mintaqaviy energetik xavfsizlik uchun jiddiy tahdid bo'lib qolmoqda. Eron parlamenti Ho'rmuz bo'g'ozini orqali neft oqimini yopish imkoniyatini muhokama qilayotgani jahon neft bozorida taranglikni kuchaytiradi, chunki bo'g'oz orqali kuniga taxminan 18-20 million barrel neft va neft mahsulotlari eksport qilinadi.

Xalqaro dengiz marshrutlarida xavfsizlik pasayishi, GPS signallarining bezovta qilinishi va tijoriy kemalar uchun navigatsiya sharoitining murakkablashuvi mintaqaning maritim xavfsizligidagi risklarni oshirmoqda, bu esa eksportni sekinlatishi yoki qayta yo'naltirishga olib kelishi mumkin.

So'nggi yillarda Isroilning Eronga qarshi harbiy amaliyotlari va Eron tomoni bilan xalqaro ziddiyatlar Ho'rmuz bo'g'ozini orqali neft yetkazib berishning barqarorligini xavf ostiga qo'ydi. Ba'zi kemalar xavfsizlik holati tufayli ushbu yo'nalishni vaqtincha aylanib o'tishga majbur bo'lmoqda, bu esa transport va sug'urta xarajatlarini oshirishga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, Yaponiya, Xitoy, Hindiston va Janubiy Koreya kabi Osiyo davlatlari Ho'rmuz bo'g'ozini orqali yetkaziladigan neftga bevosita bog'liq bo'lib, bu davlatlar energetik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha strategiyalar ishlab chiqmoqda.

Bugungi kunda mintaqa xavfsizligi faqat davlatlararo ziddiyatlar bilan o'lchanmaydi. Terroristik va nodavlat aktorlar tomonidan yo'l qo'yiladigan hujumlar, jumladan infratuzilma va kemalar ustiga qaratilgan xakerlik yoki alohida sabotaj harakatlarining ehtimoli ham mavjud. Bu turdagi tahdidlar eksport yo'nalishlarini noaniq holatga solib, logistika zanjirlarini buzishi mumkin.

Zamonaviy sharoitda Fors ko'rfazi davlatlari Ho'rmuz bo'g'oziga bo'lgan qaramlikni kamaytirish maqsadida neft eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilmoqda. Trans-Arab neft quvuri kabi muqobil loyiha va infratuzilmalar mintaqaviy energetik xavfsizlikni mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bunga siyosiy beqarorlik, ishlab chiqarish hajmining oshishi, neft narxlarining yuqori darajada saqlanishi va mintaqaviy hamkorlik sabab bo'lmoqda. Muqobil yo'nalishlar hozirgi geosiyosiy sharoitda eksport marshrutlarini diversifikatsiya qilish orqali eksport jarayonining xavfsizligini oshiradi va

tahdidlarga qarshi chidamliligini kuchaytiradi. Loyihalangan yo'nalishlar orasida Saudiya Arabistoni-BAA (Fujaira), Saudiya Arabistoni-Ummun va Trans-Ko'rfaz quvuri mavjud bo'lib, ularning umumiy quvvati kuniga 5 million barrelgacha yetadi. Ushbu infratuzilmalar eksport xavfsizligini oshirish va mintaqaning geosiyosiy barqarorligini mustahkamlashda muhim strategik vosita bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yangiliklar bo'yicha, Eron va Isroil o'rtasidagi ziddiyatlar BMT Xalqaro dengiz tashkilotida ham transport xavfsizligi bo'yicha bahslashuvlarni yuzaga keltirmoqda, bu esa global logistika tarmog'ining murakkablashishiga olib kelmoqda. Shuningdek, mamlakatlararo harbiy mashqlar, suv bo'g'ozlarini yopish tahdidlari va terror xavfi global neft narxlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, shu jumladan bozor narxlari o'sishi va sug'urta to'lovlarining oshishiga olib kelmoqda.

Xulosa. Umuman quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchiidan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, Fors ko'rfazi mintaqasi global energetika tizimi va xalqaro geosiyosiy muvozanatda markaziy o'rin tutadi. Hududning ulkan neft va gaz zaxiralari, yuqori ishlab chiqarish va eksport salohiyati mintaqani nafaqat iqtisodiy, balki strategik subyekt sifatida ajratib turadi.

Ikkinchiidan, Ho'rmuz bo'g'ozini kabi strategik tranzit yo'laklari orqali o'tadigan energetik oqimlar mintaqani global neft va gaz bozorida markaziy rolga ega qilmoqda. Ushbu yo'laklar Fors ko'rfazini yirik davlatlar manfaatlarini to'qnashadigan makonga aylantiradi va geostrategik muvozanatga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchiidan, tarixiy jarayonlar va zamonaviy tajribalar shuni ko'rsatadiki, neft omili Fors ko'rfazida nafaqat iqtisodiy resurs, balki siyosiy ta'sir va geostrategik bosim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. OPEC tashkiloti, neft milliylashtirilishi va neft inqirozlari mintaqada davlatlariga energiya resurslarini global siyosiy strategiyalarda qo'llash imkoniyatini berdi.

To'rtinchiidan, Ho'rmuz bo'g'ozini atrofidagi beqarorlik, Eron bilan bog'liq ziddiyatlar va boshqa zamonaviy xavfsizlik tahdidlari mintaqaning eksport yo'nalishlari va energetik barqarorligini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, Trans-Arab neft quvurlari kabi muqobil infratuzilma loyihalari mintaqada davlatlarining strategik javobi sifatida energetik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Beshinchiidan, Fors ko'rfazida neft omili kelajakda ham global siyosat, energetika bozori va xalqaro xavfsizlik tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Mintaqaviy va global energetik barqarorlikni ta'minlash, xavfsizlik tahdidlariga qarshi chidamlilikni oshirish va eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish strategik zarurat sifatida davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asgar Jafari Valdani. New Geopolitics of the Red Sea and the Persian Gulf.:Tehran. The Institute for Political and International Studies. 2005. – P.6
2. Blanchard C.M. The Persian Gulf States: Threats and Opportunities. – Washington, DC: Congressional Research Service, 2013. –45 p.; Claes D. Geopolitics of Energy: Oil and Gas in the Middle East. – London: Routledge, 2014. – 288 p.
3. BP. Statistical Review of World Energy 2023. – London: BP plc, 2023. – 74 p.
4. Dikshit R.D. Political Geograhgy. The Spatiality of Politics. New Delhi.: McGraw-Hill Publication Company Limited.2004. – P.196 ; Spykman N. The Geography of the Peace. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1942. –310 p.
5. Gulf Cooperation Council Statistical Centre (GCC-Stat). GCC countries rank first worldwide in crude oil output, reserves, exports. – Abu Dhabi, 2025. – Article with GCC crude oil reserves and production data for 2023. // <https://www.gulftoday.ae/business/2025/02/15/gcc-countries-rank-first-worldwide-in-crude-oil-output-reserves-exports> .
6. Kaplan R. The Revenge of Geography: What the Map Tells Us About Coming Conflicts and the Battle Against Fate. – New York: Random House, 2009. – 432 p.
7. Kerr I. The Persian Gulf: Resources and Politics. – London: Macmillan, 1955. – 310 p.
8. OPEC. Annual Statistical Bulletin 2023. – Vienna: Organization of the Petroleum Exporting Countries, 2023. – 120 p.
9. Organization of the Petroleum Exporting Countries. Annual Statistical Bulletin 2024. –Vienna: OPEC Secretariat, 2024. – PDF file with statistical data on proven crude oil and natural gas reserves. – Sections: Proven Crude Oil Reserves and World Proven Natural Gas Reserves statistics. // <https://publications.opec.org/asb-2024.pdf> .
10. U.S. Energy Information Administration (EIA). International Energy Outlook 2024. – Washington, DC: U.S. Department of Energy, 2024. – 256 p.
11. U.S. Energy Information Administration (EIA). World Oil Transit Chokepoints. – Washington, DC: U.S. Department of Energy, 2025. –PDF file. // https://www.eia.gov/international/content/analysis/special_topics/World_Oil_Transit_Chokepoints/?utm_source=
12. Денчев К., Златев В. Нефть, газ и геополитика : София. 2000. – С.33-34.
13. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. –Т.14. – Т.:Ўзбекистон, 2006. – Б.106.